

**Turkiston tizmasining shimoli-g'arbiy qismida uchraydigan *Ferula samarkandica* Korovin, 1947 o'simligi bilan bog'liq
hasharotlar**

U.N Usanov¹, F.Z.Xalimov²

¹Samarqand davlat universiteti, O'zbekiston, usanov0892@gmail.com

²Samarqand davlat universiteti, O'zbekiston, xalimov1968@list.ru

Abstract: In the article, the species composition of the entomofauna of the Samarkand blanket (*Ferula samarkandica* Korovin) in the north-western part of the mountain range of Turkestan at different altitudes from 1483 to 2048 meters above sea level was analyzed. 40 species of insects belonging to 5 families have been identified.

Yer yuzida *Ferula L.* turkumining 180-185 turi, MDH mamlakatlarida 106 turi, Markaziy Osiyoda 105 turi, O'zbekistonda 48 turi, G'arbiy Tiyonshonda 50 dan ortiq, Pomir-Oloy tizmasida 60 yaqin turi, G'arbiy Pomir-Oloy tizmasida 33 turi uchraydi [1; b.-240].

Turkiston tizmasida *Ferula L.* turkumining - 17 (*F. kokanica*, *F. schtschurowskiana*, *F. linczevskii*, *F. penninervis*, *F. fedtschenkoana*, *F. foetidissima*, *F. kuhistanica*, *F. karategina*, *F. dshizakensis*, *F. mollis*, *F. angrenii*, *F. kelleri*, *F. samarkandica*, *F. sumbul*, *F. ovzinnikova*, *F. ovina*, *F. litwinowiana*) turi uchraydi [2].

Ferula samarkandica Korovin, 1947 -Samarqand kovragi qumli, toshli shag'alli qiyaliklarda uchraydi. U smola saqllovchi, efirmoyli va yem-xashak o'simligi bo'lib [3,4], guli asal shiraga boy [5].

F. samarkandica Korovin, 1947 monokarp o'simlik. Ildizi bir necha kengaygan yonlarida shoxlangan. Poyasi sariq-yashil, qalin bo'lmagan, balandligi 1,0 m gacha boradigan, o'rtasidan uzunchoq ovalsimon murakkab shingil bo'lib shoxlanadi. Soyaboni har xil, oxiri o'troq, 8-14 (20) nurli, kengligi 5-7 sm, yonidagilari 2-5 joyga to'plangan. Soyabonlari 10-15 gullari bir necha pardasimon o'rama bargchali, barglari so'liyidigan. May oyida gullaydi, iyun oyida urug'laydi [6; 503 s].

Ferula turkumi vakillari bilan trofik bog'langan hasharotlarni aniqlash bo'yicha bir qancha tadqiqotlar olib borilgan [7,8,9,10]. Eng so'nggi tadqiqotlarda *Ferula kuhistanica* turining entomofaunasi **8 ta turkum, 48 ta oila va 85 ta avlodga mansub** 95 turdan iborat ekanligi ko'rsatilgan [11]. *Ferula* o'simligida changlatuvchi hasharotlarning **4 ta turkum, 17 ta oilaga mansub** 37 ta turi qayd etilgan bo'lsada [12], *Ferula samarkandica* Korovin, 1947 o'simligi bilan bog'liq hasharotlar bo'yicha maxsus tadqiqotlar olib borilmagan.

Turkiston tizmasining shimoli-g'arbiy qismida o'tkazilgan tadqiqotlar davomida *Ferula samarkandica* Korovin, 1947 ning gullari va urug'lari bilan trofik bog'langan 40 ta tur hasharotlar aniqlandi. Ularning 9 ta turi qattiqqanotlilar (Coleoptera), 14 ta tur ikkiqanotlilar (Diptera), 10 ta turi pardaqaqanotlilar, 6 ta turi yarimqattiqqanotlilar (Hemiptera), 1 ta tur to'rqanotlilar (Neuroptera) turkumlariga mansubdir.

Ferula samarkandica Korovin, 1947 to'pguli bilan trofik bog'langan hasharotlar faunasi xilma-xil turlardan iborat. Bu turlar kovrak to'pgulidagi gulchalarning gulqo'rgoni, changchilari yoki urug'chilariga ma'lum darajada zarar yetkazadi. Bu ekologik guruhga Hemiptera va Coleoptera turkumlari vakillari kiradi. Kovrak gullariga zarar yetkazadigan turlarning ko'pchiligi qo'ngizlardan iborat. Qandalalardan yo'l-yo'l Grafozoma (*Graphosoma lineolatum*) ziradoshlar oilasiga mansub o'simliklarning gullarida, shu jumladan kovrakda ham tez-tez uchraydi. Generativ organlarga zarar yetkazadigan turlarning ko'pchiligini qattiqqanotlilar tashkil etadi. Bu turkum hasharotlari ichida plastinkamo'ylovlilar oilasi vakili hisoblangan hoshiyali bronza qo'ng'izi (*Oxythyrea cinctella*) muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki, ko'pchilik gulxo'r (antofil) hasharotlar, bir tomondan, gulning changchilari va urug'chilarining bir qismini iste'mol qilib zarar yetkazsa, boshqa tomondan, changlanishda qatnashib, foyda keltiradi.

Ammo hoshiyali bronza qo'ng'izi gul qismlarini to'liq yeb qo'yishi va gul shirasini uzoq vaqt davomida so'rib turishi bilan jiddiy zarar yetkazadi. Bu hasharot oziqlangan gullar changlanmaydi va urug' hosil qilmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rahmonqulov U., Avalboyev O.N. O'zbekiston kovraklari (monografiya) // «Fan va texnologiya» nashriyoti, - Toshkent. 2016. 240-b.
2. O.N. Avalbaev "Farbii Pomir-Oloy tizmasi *Ferula L.* turlarining bioekologiyasi va ulardan oqilona foydalaniш usullarini takomillashtirish". Diss..b.f.f.d.(PhD). Samarqand - 2020. 40-41-b.
3. Кудряшев С.Н. 1937. Эфирномасличные растения и их культура в Средней Азии. Ташкент. 336 с.
4. Рахманкулов У., Мелибаев С. 1981. Некоторые биологические особенности среднеазиатских видов рода *Ferula*. Биол. Особенности и распростр. перспект. лек. Растений. Ташкент, с.31-61.
5. Булгакова Л. 1989. Медоносы кочевого пчеловодства. Ташкент, 144с.
6. Флора Узбекистана. Т. IV. Издательства АН УзССР. -Ташкент. 1959. 503 с.
7. Невский В.П. Энтомофауна Кенимехской пустыни//Труды Института зоологии и паразитологии АН УзССР. 1953
8. Серкова Л.Г. Насекомые. - вредители трав Бетпақдалинских пастбищ//Труды Казахского Института защиты растений. Т 4. 1958.
9. Давлетшина А.Г., Радзивилова М.А. Энтомофауна каврака//Узбекский биологический журнал, 1965. № 1. С. 57-62.
10. Союнов О.С., Камалов К.К., Джаллыева К.Р. Энтомокомплекс на чомуче (*Ferula litwinowiana*) в Заунгузких Каракумах//Энтомокомплексы пустынь Северного Туркменистана. Ашхабад, 1988. С. 46-56
11. Абдуллаев Э.Н., Халимов Ф.З., Хамзаев Р.А., Рахимов М.Р., Усанов У.Н., Алиев Д. Зарафшон тоғ тизмасида коврак (*Ferula kuhistanica*) энтомофаунасининг тур таркиби // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№1, 2021 й. - 314 б
12. Khalimov, F., Rakhimov, M., Khamzaev, R., Abdullaev, E., & Usanov, U. (2023). Composition and structure of the entomofauna of *Ferula* (*Ferula kuhistanica*) in different sections of the Zarafshan Ridge, Journal of the Entomological Research Society, 25(2), 275-286.
13. Tojiakhmatovich Q. I. et al. REPRESENTATIVES OF THE SUBFAMILY MEGACHILINAE (HYMENOPTERA: MEGACHILIDAE) OF THE ENTOMOLOGICAL COLLECTION OF THE INSTITUTE OF ZOOLOGY OF THE ACADEMY OF SCIENCES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. – 2022.